

---

## MAHALLA HUDUDLARI VA KO'CHALARI OBODONLASHTIRILMOQDA

Ayni kunlarda Toshloq tumanidagi barcha mahallalarda tozalash va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ushbu jarayonlarda ariq-zovurlar, mavjud gulxonalar chiqindilardan tozalanib, tartibga keltirilmoqda. Mahalla yo'llari tekislanib, tashlandiq yotgan maydonlar obod qilinmoqda.  
Toshloq tumanida olib borilayotgan sa'y-harakatlar eng chekka va olis qishloqlarda ham uyushqoqlik bilan davom etyapti. Bahor nafasi kezib yurgan shu kunlarda aholi kayfiyatini ko'tarish uchun mahallalarda sumalak va shu kabi turli ko'klam taomlari pishirilyapti, ko'ngilochar tadbirlar tashkil etilmoqda.

2023-03-07 17:24:46